

INVESTITSION LOYIHALARNI MOLİYALASHTIRISHDA RISKLARNI BOSHQARISH STRATEGIYALARI

Isomov Bekmurot Sayfidinovich

Buxoro davlat universiteti, Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada investitsion loyihalarni moliyalashtirish jarayonida yuzaga keladigan asosiy risklar, ularning iqtisodiy mazmuni hamda samarali boshqarish strategiyalari tahlil qilingan. Risklarni baholashda diversifikatsiya, sug'urtalash, xedjirlash, ssenariy tahlili kabi zamonaviy yondashuvlar yoritilgan. Shuningdek, davlat-xususiy sheriklik (PPP) modeli misolida risklarni taqsimlash va kamaytirish amaliyoti ko'rib chiqilgan. O'zbekiston va xorijiy mamlakatlar tajribasi solishtirilib, ilmiy asoslangan takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: *investitsiya loyihasi, risk, moliyalashtirish, diversifikatsiya, xedjirlash, sug'urtalash, PPP, strategiya, O'zbekiston, iqtisodiy xavf.*

УПРАВЛЕНИЕ РИСКАМИ ПРИ ФИНАНСИРОВАНИИ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ

Исомов Бекмурат Сайфидинович

Бухарский государственный университет, кафедра бухгалтерского учета и статистики, доцент

Аннотация: В статье рассматриваются основные риски, возникающие при финансировании инвестиционных проектов, их экономическая сущность и эффективные стратегии управления. Освещены современные методы оценки рисков, такие как диверсификация, страхование, хеджирование и сценарный анализ. Особое внимание уделено модели государственно-частного партнёрства (ГЧП) как способу перераспределения и снижения рисков. Проведено сравнение опыта Узбекистана и зарубежных стран с формулировкой научно обоснованных предложений.

Ключевые слова: *инвестиционный проект, риск, финансирование, диверсификация, хеджирование, страхование, ГЧП, стратегия, Узбекистан, экономическая безопасность*

RISK MANAGEMENT STRATEGIES IN THE FINANCING OF INVESTMENT PROJECTS

Isomov Bekmurat Saifiddinovich

Bukhara State University, Department of Accounting and Statistics, Associate Professor

Abstract: This article analyzes the main risks associated with the financing of investment projects, their economic nature, and effective management strategies. It highlights modern risk assessment methods such as diversification, insurance, hedging, and scenario analysis. Special attention is given to the public-private partnership (PPP) model as a practical approach to risk sharing and mitigation. A comparative analysis of Uzbekistan and international practices is provided, along with scientifically grounded recommendations.

Keywords: *investment project, risk, financing, diversification, hedging, insurance, PPP, strategy, Uzbekistan, economic security.*

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiyalar iqtisodiy o‘shish va raqobatbardoshlikni ta‘minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Mamlakat iqtisodiyotining modernizatsiyasi, ishlab chiqarishning innovatsion yangilanishi va yangi ish o‘rinlari yaratilishini ta‘minlashda investitsion loyihalarning samarali amalga oshirilishi alohida o‘rin tutadi. Biroq, ushbu loyihalarning moliyaviy jihatdan muvaffaqiyatli bo‘lishi ko‘plab ichki va tashqi risk omillari ta‘siriga bog‘liq.

Investitsion loyihalarning murakkab tabiati, uzoq muddatli xarakteri hamda noaniqliklarning yuqoriligi sababli, ularni moliyalashtirishda risklarni aniqlash, baholash va boshqarish strategiyalarini ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, kapitalni yo‘qotish ehtimolini kamaytirish va investorlarning ishonchini mustahkamlash risklarni boshqarish samaradorligiga bevosita bog‘liqdir.

Bugungi kunda zamonaviy moliyaviy bozorlarda yuzaga kelayotgan beqarorlik, global iqtisodiy inqirozlar, foiz stavkalaridagi o‘zgarishlar, valyuta kurslari tebranishi va siyosiy omillar investitsiyaviy risklarni yanada murakkablashtirmoqda. Shuning uchun investitsion loyihalarni moliyalashtirishda ilg‘or risklarni boshqarish yondashuvlari — xususan, sug‘urtalash, diversifikatsiya, xedjirlash, stress-testlar va ssenariy tahlili kabi strategiyalar qo‘llanilishi lozim.

Ushbu maqolada investitsion loyihalarning moliyaviy risklari turlari, ularning kelib chiqish sabablari, baholash usullari va ularni samarali boshqarish strategiyalari tahlil qilinadi. Shuningdek, O‘zbekiston sharoitida investitsion risklarni kamaytirishga qaratilgan mexanizmlarning amaliy samaradorligi ham ko‘rib chiqiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Investitsion loyihalarni moliyalashtirish va risklarni boshqarish masalalari bo'yicha jahon va milliy ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Bu yo'nalishda o'tkazilgan tadqiqotlar asosan risk turlari, ularni baholash usullari hamda moliyaviy strategiyalarni shakllantirishga qaratilgan. Brealey, Myers & Allen (Principles of Corporate Finance, 2020) asarida investitsion qarorlar qabul qilishda kapital qiymati, risk darajasi va baholash usullari chuqur tahlil qilinadi. Ular kapital narxi va risk o'rtasidagi bog'liqlikni izohlab, NPV (Net Present Value), IRR (Internal Rate of Return) va ssenariy tahlillari asosida risklarni hisobga olish mexanizmlarini ko'rsatib o'tadi. Damodaran, A. (Investment Valuation, 2012) tomonidan ishlab chiqilgan model va yondashuvlar risklarni diskontlash stavkasi orqali baholashda keng qo'llaniladi. U risklarni diversifikatsiyalash va portfel nazariyasi bilan bog'laydi. Markowitz H. (Portfolio Selection Theory, 1952) esa moliyaviy risklarni minimallashtirishda investitsion portfellarni diversifikatsiyalashning nazariy asoslarini taqdim etadi. Ushbu yondashuv loyihalarni moliyalashtirishda kapital taqsimoti samaradorligini oshirishga xizmat qiladi [1].

O'zbekiston va mintaqaviy olimlar ishlaridan, Karimov I.A., Mirakmalov S.K., Saidov A.A., Ibodullayev S.M. kabi olimlar o'z tadqiqotlarida O'zbekistonda investitsion muhitni takomillashtirish, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish, va moliyaviy risklarni kamaytirish yo'llarini yoritgan. Ibodullayev S.M.ning "Investitsion loyihalarni moliyalashtirish asoslari" nomli darsligi (2021) investitsion risklarning tasnifi, moliyalashtirish manbalari va samaradorlik ko'rsatkichlarini o'rganishga bag'ishlangan [2]. Toshkent Moliya Instituti va Iqtisodiyot va Biznesni Rivojlantirish universiteti professor-o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan maqolalar, xususan, "Moliyaviy risklarni baholash metodlari" va "PPP (davlat-xususiy sheriklik) loyihalaridagi risklar" mavzularidagi tadqiqotlar amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega [3].

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda investitsion loyihalarni moliyalashtirish jarayonida yuzaga keladigan risklarni aniqlash, ularni baholash hamda boshqarish strategiyalarini ishlab chiqish asosiy maqsad qilib belgilangan. Shu boisdan tadqiqotda zamonaviy iqtisodiy tahlil usullari, statistik ma'lumotlar, normativ-huquqiy asoslar va ilg'or xalqaro tajriba o'rganiladi. Tadqiqot davomida tahliliy (analitik), statistik, komparativ (taqqoslama) usullardan foydalanilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bugungi globallashuv va raqobat kuchaygan sharoitda investitsion loyihalarning moliyaviy muvaffaqiyati nafaqat loyiha rentabelligi, balki uni moliyalashtirishdagi

risklarni boshqarish darajasiga ham bog‘liqdir. Moliyaviy xatarlarning mavjudligi investorlar, kredit beruvchilar va davlat organlari uchun strategik qarorlar qabul qilishda hal qiluvchi omil bo‘lib qolmoqda. Shu sababli, investitsion loyihalarni moliyalashtirishda risklarni aniqlash, baholash va samarali boshqarish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Investitsion risklar — bu investitsiya loyihasi doirasida kutilayotgan foydaning kamayishi yoki yo‘qolishiga olib keladigan noaniqlik va salbiy holatlarning majmuasidir. Risklar bir qator asosiy toifalarga bo‘linadi. Moliyaviy risklar (foiz stavkalarini o‘zgarishi, valyuta kurslari, likvidlik yetishmovchiligi), bozor risklari (talab o‘zgarishi, raqobat kuchayishi), loyiha risklari (loyiha samaradorligini noto‘g‘ri baholash, texnologik xatoliklar), huquqiy va siyosiy risklar (normativ-huquqiy muhit barqaror emasligi), ekologik va ijtimoiy risklar mavjud. Risklarni noto‘g‘ri baholash yoki ularni inkor etish loyihaning barbod bo‘lishiga olib kelishi mumkin [4].

Investitsion risklarni boshqarish har bir mamlakatda moliyaviy infrastrukturaga, qonunchilik asoslariga, kapital bozorlarining rivojlanish darajasiga va investorlarni himoyalash mexanizmlariga bog‘liq holda farqlanadi.

1-jadval

Investitsion risklarni boshqarish: mahalliy va xorijiy tajriba

<i>N</i> _o	Asosiy strategiyalar	O‘zbekiston tajribasi	AQSh tajribasi	Germaniya tajribasi	Janubiy Koreya tajribasi
1	Diversifikatsiya	Asosan yirik loyihalarda qo‘llaniladi, KOB sektorida kam tarqalgan	Investitsion fondlar va portfellar orqali keng joriy etilgan	Banklar va institutsional investorlar darajasida keng qo‘llanadi	Korporativ guruhlar o‘rtasida sektorlararo diversifikatsiya mavjud
2	Sug‘urtalash	Davlat kafolatlari mavjud, lekin xususiy risk sug‘urtasi sust	Maxsus investitsiya sug‘urtasi mavjud (OPIC, MIGA hamkorligi)	Loyiha risklari uchun maxsus sug‘urta mahsulotlari rivojlangan	Kredit risklarini sug‘urtalovchi agentliklar faoliyat yuritadi
3	Xedjirlash (hedging)	Amaliyoti deyarli yo‘q, moliyaviy vositalar cheklangan	Futures, options keng qo‘llaniladi	Valyuta va foiz stavkalariga qarshi ilg‘or xedj mexanizmlari mavjud	Valyuta va tovar xedjlari keng tarqalgan

4	Stress-testlar va ssenariy tahlili	Katta korxonalarda qisman qo'llaniladi	Har bir yirik loyiha uchun majburiy amaliyot	Risk-boshqaruv siyosatida asosiy komponent hisoblanadi	Innovatsion loyihalarda keng qo'llanadi
5	Davlat-xususiy sheriklik (PPP)	Rivojlanayotgan bosqichda, normativ baza ishlab chiqilmoqda	Qonunchilik asoslari aniq, xavf taqsimoti mexanizmi mavjud	Davlat tomonidan kafolatlar orqali investorlar himoyalanaadi	PPP loyihalari uchun alohida agentlik faoliyat yuritadi
6	Moliyaviy vositalar	Kredit, leasing, davlat grantlari asosiy manba	IPO, obligatsiyalar, kredit sug'urtasi, venture capital mavjud	Loyiha moliyalashtirish (project finance) keng rivojlangan	Texnologik startaplar uchun fondlar, venture capital rivojlangan
7	Axborot va shaffoflik	Ma'lumotlar cheklangan, tahlil imkoniyatlari tor	Har bir loyiha bo'yicha moliyaviy ochiqlik yuqori	Moliyaviy hisobotlar majburiy va audit qilingan	Raqamli monitoring tizimlari mavjud

O'zbekiston tajribasi bo'yicha hozirgi bosqichda risklarni boshqarish strategiyalari asosan davlat kafolatlari va umumiy ehtiyot choralariga tayanmoqda. Rivojlangan mamlakatlardagi kabi xedjirlash, derivativlar bozori, va ssenariy tahlili kabi ilg'or usullar hali keng joriy etilmagan. Xorijiy tajriba asosida investitsion risklar tizimli tarzda aniqlanadi, baholanadi va xolis mexanizmlar orqali boshqariladi. Sug'urtalash, derivativlar, portfel yondashuvi keng qo'llaniladi [5].

O'zbekistonda moliyaviy vositalar (opcion, forward, future) bozorini shakllantirish, investitsion risklarni baholash bo'yicha mustaqil reyting agentliklarini tashkil qilish, KOB sektori uchun risklarni sug'urtalovchi maxsus davlat jamg'armasini yaratish, stress-testlar va ssenariy tahlilini yirik loyiha oldi baholashning majburiy elementi qilish, xorijiy tajriba asosida xedjirlash bo'yicha mutaxassislar tayyorlash dasturlarini joriy etish kabi takliflarni ko'rib chiqdik. Investitsion loyihalarni moliyalashtirishda risklarni boshqarish strategiyalariga diversifikatsiya alohida ahamiyat kasb etmoqda [6].

Diversifikatsiya — bu aktivlarni turli yo'nalishlarga taqsimlash orqali umumiy risk darajasini kamaytirish strategiyasidir. Masalan, bir nechta turdagi loyihalarga sarmoya kiritish, yoki turli geografik hududlarda faoliyat yuritish riskni pasaytiradi. Sug'urtalash. Sug'urtalash moliyaviy yo'qotishlarni minimallashtirish uchun xavflarni tashqi tashkilot zimmasiga yuklash imkonini beradi.

Loyiha risklarining muhim qismini sug'urta qilish orqali kredit olish shartlarini ham yaxshilash mumkin.

Xedjirlash (hedging). Xedjirlash, ayniqsa, valyuta va foiz stavkasi risklarini boshqarishda muhim ahamiyatga ega. Forward, futures yoki opsiyon shartnomalari orqali kutilmagan o'zgarishlardan himoyalaniş mumkin [7].

Ssenariy tahlili va stress-testlar. Turli iqtisodiy ssenariylar asosida risk holatlari modellashtiriladi. Bu usul loyihaning turli holatlarda qanday natija berishini oldindan ko'rishga yordam beradi. Stress-testlar esa eng yomon holatlar uchun tayyorlik darajasini baholashga xizmat qiladi.

Davlat-xususiy sheriklik (PPP) modeli. PPP orqali ayrim risklar davlat zimmasiga yuklanadi. Bu modelda moliyalashtirish va ekspluatatsiya bo'yicha risklar taqsimlanadi, bu esa investorlar uchun xavfsiz muhit yaratadi.

Davlat-xususiy sheriklik (Public-Private Partnership – PPP) — bu davlat va xususiy sektor o'rtasida uzoq muddatli hamkorlik shakli bo'lib, muayyan infratuzilmaviy yoki ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni moliyalashtirish, qurish, boshqarish va/yoki xizmat ko'rsatishda tomonlar o'rtasida risk va foyda taqsimoti asosida tashkil etiladi. PPP modelining asosiy xususiyatlariga xususiy sektor mablag'lari orqali loyihaning moliyaviy yukini kamaytirish, davlat kafolatlari yoki yengilliklari orqali xususiy sektorga ishonch yaratish, risklarni taqsimlash loyiha risklarining muayyan qismi davlat zimmasiga, qismi esa xususiy sektor zimmasiga yuklanadi, loyihaning samaradorligini oshirish uchun raqobat va boshqaruv sifatini yaxshilash kabilar kiradi [8].

PPP modelining investitsion risklarni boshqarishdagi roli. PPP modeli risklarni boshqarish strategiyasining ajralmas elementi sifatida quyidagi jihatlarda ahamiyatlidir:

Moliyaviy risklarning kamayishi. Davlat tomonidan kafolatlangan daromadlar, minimal to'lovlar yoki foizlarni qaytarib berish mexanizmlari xususiy investorlar uchun moliyaviy barqarorlik yaratadi.

Qonunchilik va siyosiy risklar. Davlatning loyiha jarayonidagi bevosita ishtiroki xususiy investorlarni siyosiy va tartibga solish risklaridan qisman himoya qiladi. Davlat o'z zimmasiga huquqiy xavflarni kamaytiruvchi kafolatlar oladi.

Operatsion risklar. Loyihani boshqarish xususiy sektorga topshirilgani sababli, zamonaviy texnologiyalar, ilg'or boshqaruv va resurslardan samarali foydalanish imkoniyati oshadi. Bu esa ish faoliyati bilan bog'liq risklarni kamaytiradi.

Yagona manfaatlar modeli. PPPda ikki tomon ham loyihaning muvaffaqiyatli bo'lishidan manfaatdor: xususiy sektor daromad olishni istasa, davlat xizmatlar sifatini oshirishni ko'zlaydi. Bu ikki manfaatni uyg'unlashtirish riskni pasaytiradi [9].

2-jadval

PPP modelining asosiy shakllari

PPP modeli	Tavsifi	Risk taqsimoti
BOT (Build-Operate-Transfer)	Xususiy sektor loyiha quradi, boshqaradi, so'ng davlatga topshiradi	Qurilish, ekspluatatsiya – xususiy; huquqiy – davlat
BOO (Build-Own-Operate)	Loyihani xususiy sektor quradi va doimiy egalik qiladi	De-fakto xususiy risk yuqori
DBFO (Design-Build-Finance-Operate)	Barcha jarayonlar xususiy investor zimmasida	Moliyaviy risk – xususiy; xizmat sifati – davlat nazoratida
Lease-develop-operate (LDO)	Davlat mavjud infratuzilmani ijaraga beradi	Kapital riski past; xizmat sifati bo'yicha risk – xususiy sektor zimmasida

O'zbekiston tajribasida PPP modeli. So'nggi yillarda O'zbekistonda Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida Qonun (2019) qabul qilinib, bir qator yirik loyihalar ushbu model asosida amalga oshirilmoqda: Energetika sohasida – quyosh va shamol elektr stansiyalari (Masdar, ACWA Power bilan), sog'liqni saqlashda – shoshilinch tibbiy yordam markazlari, ta'lim sohasida – xususiy maktablar va maktabgacha ta'lim muassasalari kabi loyihalar mavjud. Bu loyihalarda davlat xususiy sheriklarning sarmoyasini rag'batlantirish uchun kafolatlar, yer maydonlari va bojxona imtiyozlari taqdim etmoqda [10].

PPP modeli investitsion loyihalarni moliyalashtirishda risklarni boshqarishning eng muhim mexanizmlaridan biridir. U kapital yuklamaning teng taqsimlanishi, moliyaviy va operatsion risklarning boshqarilishi, loyiha barqarorligi va shaffofligi, O'zbekiston sharoitida bu modelni rivojlantirish uchun esa xususiy sektorni rag'batlantirish choralari kengaytirilishi, mahalliy investorlar uchun trening va maslahat tizimlari yaratilishi, loyiha tanlovlarida ochiqlik va raqobat ta'minlanishi muhim hisoblanadi [11].

O'zbekistonda so'nggi yillarda investitsion muhitni yaxshilash, xususan, investorlar uchun xavf-xatarsiz sharoit yaratish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Investitsiyalarni sug'urtalash jamg'armalari, davlat kafolatlari va imtiyozlar tizimi mavjud. Ammo hali-hanuz moliyaviy bozorlarda kam rivojlanganlik (opsion/future yo'qligi), tahliliy risk baholash vositalarining cheklanganligi, xususiy sektorning xedjirlash imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanmasligi kabi muammolar saqlanib qolmoqda. Amaliy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, ko'plab kichik va o'rta korxonalar loyihalarni moliyalashtirishda risklarni yetarli darajada baholamagan holatda qaror qabul qilishmoqda, bu esa loyiha muvaffaqiyatsizligiga olib kelmoqda [12].

XULOSA

Investitsion loyihalarni moliyalashtirish jarayonida risklar — bu nafaqat kutilmagan yo‘qotishlar ehtimoli, balki moliyaviy samaradorlikka tahdid soluvchi muhim omillardir. Ularning kelib chiqish manbalari xilma-xil bo‘lib, iqtisodiy, siyosiy, moliyaviy va tashkiliy omillar bilan chambarchas bog‘liq. Shu boisdan, har qanday investitsion qaror ilgari surilishidan oldin risklarni chuqur o‘rganish va ularni oqilona boshqarish strategiyalarini tanlash zarur.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, risklarni boshqarishda diversifikatsiya, sug‘urtalash, xedjirlash, ssenariy tahlili, stress-testlar hamda Davlat-xususiy sheriklik (PPP) modeli singari yondashuvlar muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlarda, xususan O‘zbekistonda, risklarni minimallashtirish bo‘yicha tizimli yondashuvlar joriy etilishi lozim.

Shuningdek, moliyaviy bozor infrastrukturasi, axborot shaffofligi, va investorlarni himoya qiluvchi institutsional mexanizmlarning mavjudligi investitsion risklarni boshqarish darajasiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, investitsion loyihalarda risklarni nazorat ostiga olish — bu loyiha muvaffaqiyatining asosi bo‘lib, u nafaqat iqtisodiy barqarorlikni, balki investitsion muhitning jozibadorligini ham ta‘minlaydi. Kelajakda ushbu yo‘nalishda ilg‘or xalqaro tajriba va zamonaviy moliyaviy instrumentlardan foydalanish dolzarb hisoblanadi.

Investitsion loyihalarni moliyalashtirishda risklarni boshqarish samaradorligini oshirish uchun quyidagi takliflar muhim deb hisoblaymiz:

1. Risk baholash tizimlarini joriy etish — loyihalar uchun majburiy risk hisobotlari ishlab chiqilishi kerak.
2. Moliyaviy vositalarni rivojlantirish — derivativlar bozorini yo‘lga qo‘yish.
3. Investorlar uchun axborot ochiqligini kuchaytirish — loyihalar bo‘yicha ochiq statistika va monitoring tizimi.
4. PPP mexanizmlarini kengaytirish — davlat tomonidan kafolatlangan loyihalarda risklar muvozanatli taqsimlansin.
5. Kichik biznes uchun risklarni sug‘urtalash jamg‘armalarini rivojlantirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Brealey, R. A., Myers, S. C., & Allen, F. (2020). *Principles of Corporate Finance* (13th ed.). McGraw-Hill Education.
2. Ibodullayev, S. M. (2021). *Investitsion loyihalarni moliyalashtirish asoslari*. Toshkent: Iqtisod-Moliya.
3. Mirakmalov, S. K. (2019). *Moliyaviy menejment: nazariya va amaliyot*. Toshkent: IQTISOD-MOLIYA.

4. Islomov, B. S. (2020). Investitsion loyihalarda risklarni baholash va boshqarishning zamonaviy yondashuvlari. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali*, (4), 45–51.
5. Damodaran, A. (2012). *Investment Valuation: Tools and Techniques for Determining the Value of Any Asset* (3rd ed.). Wiley Finance.
6. Markowitz, H. (1952). Portfolio selection. *The Journal of Finance*, 7(1), 77–91. <https://doi.org/10.2307/2975974>
7. Yescombe, E. R. (2013). *Principles of Project Finance* (2nd ed.). Academic Press.
8. OECD. (2014). *Effective Public Investment Across Levels of Government: Principles for Action*. OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/9789264214451-en>
9. World Bank. (2017). *Public-Private Partnerships: Reference Guide Version 3.0*. International Bank for Reconstruction and Development. <https://ppp.worldbank.org>
10. UNCTAD. (2020). *World Investment Report 2020: International Production Beyond the Pandemic*. United Nations Conference on Trade and Development. <https://unctad.org>
11. Ibodullayev, S. M. (2021). *Investitsion loyihalarni moliyalashtirish asoslari*. Toshkent: Iqtisod-Moliya nashriyoti.
12. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. (2023). *Investitsiyaviy muhit va loyihalar bo‘yicha hisobotlar*. <https://invest.gov.uz>